

## **Prezident maktablari – Fikrlash Qobiliyatini baholash test sinovi**

### **NAMUNAVIY TEST SAVOLLARI**

Quyidagi test savollari majmuasi Prezident maktablarining 7 – 8-sinflariga qabul qilinadigan o'quvchilar uchun mo'ljallangan Fikrlash Qobiliyatini baholash test sinovlari bo'yicha namunaviy qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

Har bir savolga uning to'g'ri javobi hamda qisqa asoslantirish berilgan.

Qo'shimcha ma'lumot uchun test sinovlari bo'yicha alohida qo'llanmani ko'ring.

## Tanqidiy Fikrlash

1 Shifokor shunday dedi: “Mototsikl mingan har bir kishi kaska kiyishi lozim.”

Quyidagi fikrlarning qaysi biri sizning shifokor fikriga qo‘shilishingizga asos bo‘la oladi?


- A Sifatli kaskalar oddiylariga nisbatan arzonroq va yengilroq bo‘ladi.
- B Agar kaska kiysangiz jiddiy jarohat olishingiz ehtimoli ancha past bo‘ladi.
- C Boshqa tana a‘zolari jarohatlariga nisbatan bosh jarohati jiddiy xisoblanadi.
- D Ot minuvchi kishilar odatda himoyalovchi bosh kiyimi kiyishadi.

**To‘g‘ri javob: B**

**Asos:**

Agar kaska jiddiy jarohatlanish havfini kamaytirsam, unda ushbu javob shifokorning fikriga qo‘shilishga asos bo‘la oladi.

- 2 Shifokorlar ko'p meva iste'mol qilish sog'liq uchun foydali ekanini ta'kidlashadi. Ammo, stomatologlarning ta'kidlashicha, mevalarni ko'p iste'mol qilish tishlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Sergey

Shubhasiz, bir vaqtning o'zida ham shifokorlar, ham stomatologlar haq bo'lolmaydi. Yo shifokorlar yoki stomatologlar xato qilmoqdalar.

Sergey qanday xatoga yo'l qo'ydi?

- A U oziq-ovqatning faqat bittagina turi haqida o'ylamoqda, biroq oziq-ovqatning boshqa turlari ham mavjud.
- B U ba'zi narsalar bir vaqtning o'zida yaxshi va yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini unutdi.
- C U kimnidir xatoga yo'l qo'ygani uchun aybdor deb topishga urinmoqda.
- D U meva yemaslikka bahona topishga harakat qilmoqda, chunki meva qimmat.

**To'g'ri javob: B**

**Asos:**

Sergeyning fikricha, bir vaqtning o'zida ham shifokorlar ham stomatologlar haq bo'lolmaydi. Biroq, u hamma narsaning bir vaqtning o'zida ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini unutmoqda. Zero, mevalarda sog'liq uchun foydali bo'lgan ozuqalar va vitaminlar, shuningdek, tishlaringiz uchun zararli bo'lgan ko'p miqdordagi shakar mavjud.

3 Jamila, Kamilla, Lusi va Maks poezdda bir stol atrofida o'tirishibdi. Ularning ikkitasi to'g'riga (harakat yo'nalishi tomonga), qolgan ikkitasi esa orqa yo'nalishga qarab o'tirishibdi. Ularning ikkitasi deraza tomonda, qolgan ikkitasi esa yo'lak yonidagi o'rindiqda o'tirishibdi.

Meni bilishimcha:

Jamila Lusiga diagonal qarama-qarshi o'tiribdi;

Maks to'g'ri yona'lishga qarab o'tiribdi;

Kamilla esa Jamilaning yonidagi o'rindiqda o'tiribdi.

Menga quyidagilarning yana qaysi biri ma'lum?

- A Lusi orqa yo'nalishga qarab o'tiribdi.
- B Lusi deraza tomondagi o'rindiqda o'tiribdi.
- C Kamilla yo'lak yonidagi o'rindiqda o'tiribdi.
- D Jamila Maksga qarama-qarshi o'tiribdi.

**To'g'ri javob: D**

**Asos:**

Berilgan ma'lumotga ko'ra, Jamila Lusiga diagonal qarama-qarshi tomonda o'tiribdi. Kamilla esa Jamilaning yonida o'tiribdi. Bundan kelib chiqadiki, Lusining joyi Maksning yonida. Bolalarning qaysi biri deraza yoki yo'lak tarafda o'tirgani bizga ma'lum emas. Ammo berilgan ma'lumot shuni ko'rsatadiki Jamila Maksga qarama-qarshi tomonda o'tiribdi.

4 Besh nafar bola beshta qiyin savoldan tashkil topgan matematika testini yechdi. Testdan so'ng o'qituvchi eng ko'p to'g'ri javobni topganlar hamda testni eng tez bajarganlar mezonini bo'yicha reyting tuzib chiqdi. Husan Gulchehraga qaraganda testni tezroq bajargan, lekin uchta savolga noto'g'ri javob bergan. Anvar barcha savollarga to'g'ri javob bergan, ammo testni juda sekin bajargan. Nosir testni ikkinchi bo'lib tugatgan, ammo ikkita savolga noto'g'ri javob bergan. Gulchehra Nosirga qaraganda ko'proq savolga to'g'ri javob bergan, lekin undan keyinroq testni tugatgan. Komola testni Nosirdek tez bajarmagan, lekin Nosir testni Husandan sekinroq bajargan.

Agar yuqoridagi gaplarning barchasi to'g'ri bo'lsa, quyidagi jummalardan faqat bittasi to'g'ri **bo'la olmaydi**. Qaysi biri?

- A Gulchehra Anvarga qaraganda kamroq savollarga to'g'ri javob berdi.
- B Husan Komolaga qaraganda testni tezroq bajardi.
- C Husan testni birinchi bo'lib yakunlamadi.
- D Husan eng kam savollarga to'g'ri javob berdi.

**To'g'ri javob: C**

**Asos:**

Yuqoridagi matnga ko'ra, Husan testni birinchi bo'lib bajargan bo'lishi kerak. Chunki:

U testni Gulchehraga qaraganda tezroq bajargan;

U testni Nosirga qaraganda tezroq bajargan. Bundan kelib chiqsak, u testni Komoladan ham oldinroq bajargan;

Anvar testni eng ohirgi bo'lib yakunlagan.

## Muammoni Hal Qilish

- 1 Klinika soat 9:00 dan 17:00 gacha ishlaydi. Har bir bemor tashrifiga 15 daqiqa vaqt ajratiladi va har bir shifokorda 30 daqiqalik tushlik vaqti ajratilgan.

Agar klinikada 4 ta shifokor ishlaydigan bo'lsa, bir kunda nechta bemor qabul qilinishi mumkin?

- A 30
- B 32
- C 112
- D 120

**To'g'ri javob: D**

**Asos:**

Har bir shifokor bir kunda umumiy 7.5 soat ishlaydi (Ish vaqti 09:00 dan 17:00 gacha, ya'ni umumiy 8 soat bo'lib, shundan 30 daqiqasi tushlik uchun ajratilgan.)

Bir soatda shifokor 4 ta bemorni qabul qilishga ulguradi ( $60/15$ ). Demak, 7 soat 30 daqiqada 30 ta bemorni qabul qilishi mumkin ( $7 \times 4 + 2 \times 15$ ).

Klinikada 4 ta shifokor ishlaydi. Demak, bir kunda 120 ( $4 \times 30$ ) ta bemor qabul qilinadi.

- 2 Musiqachilar guruhi bir kechalik musiqiy namoyish taqdim etish uchun mahalliy teatr binosini ijaraga oldilar.

Teatr binosining ijara narxi 800\$ ni, hamda har bir sotilgan chipta uchun esa qo'shimcha 3\$ ni tashkil qiladi. Teatr binosi 400 o'ringa mo'ljallangan va musiqachilar har bir chiptani 8\$ dan sotishga qaror qilishdi.

Ijara xarajatlarini qoplash uchun nechta chipta sotish kerak bo'ladi?

- A 100
- B 150
- C 160
- D 240

**To'g'ri javob: C**

**Asos:**

Har bir chipta narxi 8\$ bo'lib, teatr binosi ijarasi bu narxni 3\$ ga oshiradi. Qolgan 800\$ ni har bir sotilgan chiptadan 5\$ dan ajratish orqali qoplanadi. Ya'ni,  $800/5 = 160$

Demak, bino ijara narxini qoplash uchun ular 160 ta chipta sotishlari kerak.

- 3 Fermer teng miqdordagi sigir, qo'y va tovuqlarga bor edi. U qo'ylarning yarmini va tovuqlarning uchdan bir qismini sotdi, keyin esa 10 ta echki va 3 ta sigir sotib oldi. Fermerning hozirgi kunda jami 39 ta uy hayvoni bor.

Hozirda fermerning qancha sigiri bor?

- A 13
- B 14
- C 15
- D 16

**To'g'ri javob: C**

**Asos:**

10 ta echki va 3 ta sigirni sotib olishdan oldin fermerning 26 ta uy hayvoni bor edi (ya'ni,  $39 - 10 - 3 = 26$ ).

Agar dastlab fermerda har bir uy hayvonidan 6 tadan bo'lganida, qo'ylarning yarmini va tovuqlarning uchdan birini sotganidan keyin 6 ta sigir, 3 ta qo'y va 4 ta tovuq, jami 13 ta uy hayvoni, qolar edi.

Demak, 26 ta uy hayvoni 12 ta sigir, 6 ta qo'y va 8 ta tovuqdan iborat; qo'shimcha 3 ta sigirni hisobga olgan holda fermerda 15 ta sigir bor.



- 4 Musobaqa jarayonida 12 nafar o'quvchiga to'pni imkon qadar uzoqroqqa otish uchun ikkita imkoniyat berildi. Ikki martali urinishning eng yahshisi ularning "asosiy natijasi" sifatida qayd etildi. Quyidagi jadvalda 12 nafar o'quvchining har ikki urinishda ko'rsatgan natijalari berilgan.

O'quvchilar tartib raqami	1-urinish (metr)	2-urinish (metr)
1	32,4	30,5
2	29,2	31,2
3	25,6	30,4
4	36,8	35,6
5	36,5	34,2
6	21,6	25,9
7	29,2	30,8
8	31,4	30,9
9	29,4	27,5
10	31,3	32,8
11	30,5	30,6
12	28,4	33,6

Qaysi o'quvchi musobaqada to'rtinchi o'rinni egallagan?

- A 5-o'quvchi
- B 8-o'quvchi
- C 10-o'quvchi
- D 12-o'quvchi

**To'g'ri javob: C**

**Asos:**

Jadvalga ko'ra, qayd etilgan natijalar quyidagilar: 32,4; 31,2; 30,4; 36,8; 36,5; 25,9; 30,8; 31,4; 29,4; 32,8; 30,6; 33,6.

Natijalar yuqoridan quyiga qarab quyidagi tartibda: 36,8; 36,5; 33,6; 32,8; 32,4 ...

Demak, 32,8 metrni qayd etgan o'quvchi 4 chi o'rinni egallagan bo'lib, uning tartib raqami 10.

- 5 Sakinaga matematika fanidan uy vazifasi uchun 30 ta savol berildi. Birinchi 20 ta savolning har birini yechish uchun 3-5 daqiqagacha vaqt ketadi, oxirgi 10 ta savolni yechish uchun esa 5-10 daqiqagacha vaqt ketadi.

Sakina 19:00 da uy vazifasini bajarishni boshlaydi va har 30 daqiqadan so'ng 15 daqiqalik tanaffus qiladi. U har gal 30 daqiqaning oxiriga qadar o'zi bajarib turgan har qanday savolni yakuniga yetkazib, keyin tanaffusga chiqadi.

U uy vazifasini tamomlashi mumkin bo'lgan eng erta vaqt qaysi?

- A 20:50
- B 21:20
- C 21:35
- D 21:45

**To'g'ri javob: C**

**Asos:**

Uyga vazifani imkon qadar tezroq tamomlash uchun berilgan savollarga juda qisqa muddatda javob berish talab etiladi.

Savollarga javob berish uchun ajratilgan umimiy vaqt:  $20 \times 3 + 10 \times 5 = 110$  daqiqa. Sakina har 30 daqiqadan so'ng tanaffus oladi, ya'ni 3 marotaba tanaffus oladi.

Demak, Sakina 19:00 da uyga vazifani boshlaydi va 155 daqiqa o'tib yakunlaydi, ya'ni, 21:35.

- 6 Quyida "Shevrolet" kompaniyasi tomonidan 2012 va 2013 yillarda sotilgan avtomobillarning ma'lumoti berilgan:

	Yan	Fev	Mart	Apr	May	Iyun	Iyul	Avg	Sent	Okt	Noy	Dek
2012	85	83	98	102	118	135	88	97	116	83	125	128
2013	123	106	87	114	90	106	124	113	131	77	92	75

2013 yilning qaysi oyida oldingi oyga nisbatan sotuvning eng katta o'sishi kuzatilgan?

- A Aprel
- B Iyun
- C Iyul
- D Sentabr

**To'g'ri javob: A**





**Asos:**

2013-yilning mart oyidan aprel oyigacha o'sish surati 27 donani tashkil qildi; bu esa 2013-yil mobaynida 20 va undan ko'proqqa o'sgan yagona oy bo'ldi.

7 Vazada quyidagi 24 xil mevalar bor:

<i>meva</i>	<i>rangi</i>	<i>soni</i>
olma	qizil	4
o'rik	to'q sariq	2
banan	sariq	4
apelsin	to'q sariq	2
olxo'ri	qizil	4
qulupnay	qizil	8

Doirali diagrammalarning qaysi biri vazadagi mevalar sonining ranglar bo'yicha taqsimotini to'g'ri aks ettirgan?



**To'g'ri javob: B**

**Asos:**





Qizil rangli mevalar soni 16 ta, to'q sariq mevalar soni 4 ta, sariq mevalar soni ham 4 ta. Demak mevalarning uchdan ikki qismi qizil rangli va qolgan uchdan bir qismi sariq va to'q sariq rangli mevalarning teng yarmidan iborat.

B javobdagi doirali diagramma xuddi shu taqsimotni yaqqol aks ettirgan.

8 Quyida jumboqli shaklning kichik qismlari berilgan:



Quyidagi katta qismlarning qaysi biri yuqoridagi kichik qismlar bilan birlashtirilganda to'g'ri to'rt burchak shaklini hosil qilish mumkin bo'ladi?




**To'g'ri javob: A**





**Asos:**

A javobdagi qism yuqoridagi 3 ta kichik qismlar bilan birlashtirilganda to'g'ri to'rt burchak shaklini hosil qilish uchun eng mos shakldir.

- 9 Quyidagi namunada bir xil o'lchamdagi bir nechta doirasimon shakllar qisqarib boruvchi kvadratlar tarzida joylashtirilgan.



Quyidagi qaysi grafikada bir xil o'lchamdagi doirasimon shakllar soni to'g'ri aks ettirilgan?



**To'g'ri javob: D**

**Asos:**

To'rt xil o'lchamdagi doirasimon shakllar mavjud. Ularning soni o'lchamlarining o'sishi tartibida 20, 16, 32 va 12 ga teng. D javobdagi grafalarning balandligi ushbu sonlarga (chapdan o'ngga qarab) to'g'ri keladi.